



## RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH

**Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li PhD,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, moliyaviy innovatsiyalar va global raqobatning kuchayishi bank faoliyatining barcha yo'nalishlarini, xususan investitsion jarayonlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. An'anaviy bank xizmatlari o'rni bosib borayotgan raqamli platformalar investitsiya qarorlarini qabul qilish tezligi va sifatini sezilarli darajada oshirmoqda.


Bugungi kunda fintech, sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar" (Big Data), blokcheyn texnologiyalari kabi innovatsion yechimlar banklarning investitsion faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar investitsiya loyihalarini tahlil qilish, risklarni baholash va prognozlash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi. Natijada, banklar investitsiya resurslarini yanada samarali taqsimlash va yuqori daromadli loyihalarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yondashuvlari kompleks xarakterga ega bo'lib, u nafaqat texnologik, balki institutsional va tashkiliy o'zgarishlarni ham qamrab oladi. Xususan, raqamli ekotizimlarni shakllantirish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni raqamlashtirish hamda investitsiya platformalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ochiq bank tizimi (open banking) va API texnologiyalaridan foydalanish orqali banklar va boshqa moliyaviy institutlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish mumkin.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya banklarning investitsion strategiyasini qayta ko'rib chiqishni, yangi risklarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni va kadrlar salohiyatini oshirishni talab etadi. Kiberxavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, real sektorni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Banklar investitsiya jarayonining asosiy moliyaviy vositachisi sifatida kapitalni samarali taqsimlash, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, banklarning investitsion faoliyatini samarali tashkil etish puxta ishlab chiqilgan va

o‘zaro bog‘liq mexanizmlar tizimiga asoslanishi zarur. Zamonaviy sharoitda global moliyaviy integratsiya, raqamli transformatsiya va raqobatning kuchayishi banklardan investitsion faoliyatni tashkil etishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.



### **-rasm. Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish mexanizmi<sup>1</sup>**

Xususan, resurs bazasini mustahkamlash, investitsiya siyosatini optimallashtirish, innovatsion moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish va risklarni samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, institutsional va normativ-huquqiy muhitni takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur mexanizm tijorat banklarining investitsion salohiyatini kompleks ravishda oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishga faol hissa qo‘shishini ta’minlashga qaratilgan.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish mexanizmi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan tarkibiy elementlar majmuasidan iborat bo‘lib, ularning samarali ishlashi umumiy natijadorlikni belgilaydi. Resurs bazasini shakllantirish mexanizmi orqali banklar uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarga ega bo‘lib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Investitsiya siyosatini shakllantirish mexanizmi esa ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va resurslarni optimal taqsimlash orqali investitsiya portfelining samaradorligini oshiradi.

Moliyalashtirish instrumentlarining diversifikatsiyasi banklarga turli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkonini berib, daromadlilikni oshirish bilan birga risklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, risklarni boshqarish mexanizmi investitsiya faoliyatining barqarorligini ta’minlab, ehtimoliy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Institutsional va normativ-huquqiy mexanizmlar esa investitsiya muhitini yaxshilab, investorlar ishonchini mustahkamlaydi.


<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Raqamli va innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi investitsiya jarayonlarini tezkor, shaffof va samarali tashkil etishga yordam beradi. Monitoring va baholash mexanizmi orqali esa investitsiya faoliyatining natijalari tahlil qilinib, strategik qarorlar takomillashtiriladi. Umuman olganda, ushbu mexanizm tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Tijorat banklarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan investitsion faollikni oshirish zamonaviy moliya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Global miqyosda barqaror rivojlanish konsepsiyasining keng joriy etilishi banklar faoliyatida nafaqat moliyaviy natijalarga, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillariga ham e’tibor qaratishni talab etmoqda. Shu bois, tijorat banklari investitsiya qarorlarini qabul qilishda ESG mezonlarini integratsiya qilish orqali uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashga intilmoqda.

ESG yondashuvi banklarga risklarni chuqurroq baholash, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va yangi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Xususan, “yashil” va barqaror moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish, ekologik toza loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni moliyalashtirish banklarning investitsion faolligini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, ESG risklarini baholash tizimlarini joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish banklarning global moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi.

Mazkur yo‘nalishlar tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish bilan birga, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashga xizmat qiladi.



### **-rasm. Tijorat banklarida ESG asosida investitsion faollikni oshirish yo‘nalishlari<sup>2</sup>**

Tijorat banklarida ESG asosida investitsion faollikni oshirish ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Avvalo, investitsiya qarorlariga ESG mezonlarini

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

integratsiya qilish banklarga nafaqat moliyaviy daromadni, balki ekologik va ijtimoiy ta'sirni ham hisobga olish imkonini beradi. Bu esa investitsiya portfelining barqarorligini oshiradi va uzoq muddatli risklarni kamaytiradi.

“Yashil” va barqaror moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish orqali banklar ekologik toza texnologiyalar va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. ESG risklarini baholash tizimining (ESMS) joriy etilishi esa investitsiya loyihalarining atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini aniqlash hamda ularni boshqarish imkonini beradi.